

## KASB TUSHUNCHASI VA UNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Karimov Hasan Maxammadjon o'gli

Namangan Davlat Universiteti Tasviriy va amaliy bezak San'ati 2 kurs

Magistratura talabasi"

[xasanbekk@gmail.com](mailto:xasanbekk@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7276704>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasb tushunchasi haqida keng yoritib berilib inson hayot kechirishi va ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini yoritilib o'tildi, shaxs va inson o'rtasida kasb naqadar muxim o'rin tutishi tushuntirildi.

**Kalit so'zlar:** Kasb, usul, texnologiya, ijtimoiy hayot, , noan'anaviy, ehtiyojlar, Izlanuvchi yoshlar kasb.

Inson o'z ehtiyojlarini eng avvalo oziq - ovqat, boshpana, kiyim - kechaklarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo'lgach, ya'ni insoniyat madaniyatlashib borgan sari o'z ehtiyojlariga kerak bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalarini paydo bo'lishiga va jamiyatni shu maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga intilishlarni paydo qilgan. Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarni to'plaganlar. Kasb - inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Ba'zi olimlar kasb - bu inson ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati turi bo'lib, moliyaviy to'qlik yoki yetishmovchilik uning natijasidir deb aytсалar, yana boshqa guruh mutaxassislar "kasb" tushunchasiga insonning bilim darajasi, dunyoqarashi va boshqa shunga o'xshash omillarga bog'liq holda o'z o'zini realizatsiya qilish jarayoni sifatida qaraydilar.

**Adabiyotlar tahlili:** Kelajakda qaysi sohani tanlash haqida o'ylaysiz. Ko'pchilikni muammosi quyidagicha: Qaysidir ishga joylashasiz lekin ko'nglingiz baribir rozi emas. Ishxonada vaqt o'tishini uyga borishni o'ylaysiz... O'zingizni majburlab ishlaysiz. Qachon oy oxir bo'larkin va maosh olaman deb vaqt o'tkazasiz...

Shuni bilingki, boy odam bilan kambag'al odam o'rtasidagi asosiy farqlardan biri shundaki: boy odamlar o'zi uchun zavqli ishni tanlaydi. mehnatidan zavq olib ishlaydi. Boy odamning kasbi uning uchun dam olishdek bo'ladi. Kambag'al toifadagi ko'p odamlar esa ko'p pul keltiradigan ishda ishlashni orzu qiladi. Kambag'al odamlar mehnatdan zavq olishni emas, ko'p pul olishni o'ylaydi. Kasbi qiyin va o'ziga yoqmasa ham pul uchun ishlayveradi Kasbni tushuntirishda va uni psixologiya fani bilan bog'liqligini taniqli rus psixologi Gurevich K.M. ham o'zicha tariflab bergan. Kasblar doimiy emas, ular paydo bo'ladi va yo'qolib ketadi. Ayrimlari fan - texnikaning rivojlanishi va takomillashib ketganligi sababli faqat otigina saqlanib qolgan bo'lsada, o'zlari tubdan o'zarib ketgandir. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan

tikuvchilik kasbi – bu kasb texnikani o‘sganligi sababli hozirda tikuvchilar avtomatlashtirilgan ko‘lab tikuv stanoklarini boshqaradilar. Bu erda matolarni to‘qish nazarda tutilmoqda. SHuni aytish kerakki xozirgi to‘quvchining ishini ilgarigi formatsiyadagi tikuvchining ishi bilan taqqoslab bo‘lmaydi deb ko‘rsatadi psixolog olim.

Gurevich K.M. kasblarni paydo bo‘lishini va shakllanishini quyidagicha ko‘rsatadi. 1) Mehnat taqsimotini yuzaga kelishi bilan; 2) Fan – texnikani paydo bo‘lishi va taraqqiyoti bilan; 3) Farmatsiyalarni o‘zgarib borishi bilan.

Inson faoliyatini ko‘rinishi sifatida kasbning o‘zi nima? degan savol berar ekan Gurevich K.M. unga shunday javob berishga urinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada oliy ta‘lim muassasalarida kasb tushunchasi orqali bo‘lajak kadrlarga kasb madaniyati va ijtimoiy hayotta o‘z o‘rnini topishda kasb madaniyati chuqur tushuntirib borib samarali natija olish uchun tavsiya qilingan fikrlar muhokama qilinadi. Uning kasb tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Talaba-yoshlar kasb tanlash orqali kelajakdagi faoliyatini aniqlash mezonlari tahlili qilindi va rivojlangan davlatlar mezonlari bilan solishtirildi.

**Tahlillar va natijalar.** “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va kasb madaniyatini shakllantirish, innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

**Xulosalar.** Xulosa sifatida fikr keltirish lozimki inson hayoti davomida doim kun kechirishi avlodni davom ettirishi uchun muayyan kasb bilan faoliyat yuritib boradi, bu esa shaxs va kasb o‘rtasidagi munosabatlar sohasi, pragmatik yo‘naltirilgan shaxs hususiyatlari, ular na bilim, na ko‘nikma, va na tajriba sifatida alohida kamaytirilmaydi, balki sinkretik bir butun bo‘lib ishlaydi. Buguni kundagi davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, va kelajak avlod uchun kerakli sharoitlar yaratish uchun samarali yo‘llar orqali hayotga ijodiy yondoshib xavfsiz va keng ko‘lamlik tadbirkorlik innovatsion texnologiyalari asosida rivojlantirishda yangicha fikrlash tarzi va biznesga oid kasblar yaratish orqali o‘z hissamizni qo‘shib borishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo‘llash. o‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zROO‘MTV, 2007, 234bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. Darslik T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.
3. Jo‘raev R.X., Tolipov O.‘Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta‘lim tizimida o‘quvchilarni kasb-hunar yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. -

T.:FAN. 2004. 120 b.

4. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
5. Boltaboev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -Toshkent: 2000.
6. Tolipov O 'Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. -Toshkent: O 'zPFITI. 2004. 32 b.
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).